


## Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi

### Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-iyunida 2,2 ming ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (23,2 %), savdo sohasida (22,4 %), qurilish tarmog'ida (14,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (14,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (11,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (11,2 %) tashkil etgan.

#### 2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




## 2018 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand shahri 12,0 birlikda, Kattaqo'rg'on shahri 7,9 birlikda, Samarqand tumanida 5,8 birlikda, Oqdaryo tumanida 4,6 birlikda bo'lib, Ishtixon 3,7 va Bulung'ur tumanida 3,7 birlikda, Pastdarg'om tumanida 4,3 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 3,3-4,6 birlik oralig'ida aniqlandi. Kattaqo'rg'on tumanida 3,0 birlikda, Paxtachi tumanida 2,8 birlikda, Qo'shrabot tumanida 2,7 birlikda ushbu ko'rsatkichlar past bo'lib qolmoqda.

## Har 1000 aholiga kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni, *birlikda* (yanvar-iyun)




2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 4,2 birlikda bo'lib, 2017 yilda 4,6 birlikni tashkil etgan. 2018 yilda bu ko'rsatkich 5,0 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 0,8 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 49,2 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunida 54,3 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

### 2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi

YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 67,6 % kichik tadbirkorlik(biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2017 yil yanvar-iyungacha nisbatan 0,7 % ga kamaygan.



### 2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>52,4</b>	<b>98,8</b>	<b>75</b>
Samarqand.sh	41,8	96,2	52,7
Kattaqurg'on.sh	32	100	92,8
Bulung'ur	100	100	98,9
Jomboy	18,8	100	88,8
Ishtixon	51,2	100	98,7
Kattaqurg'on	40,9	100	98,8
Narpay	25,6	100	98,2

Nurobod	100	100	96,2
Oqdaryo	81	100	98,5
Payariq	41,4	100	98,7
Pasdarg'om	58,8	100	87,4
Paxtachi	69	100	96,7
Samarqand	99,5	100	94,9
Tayloq	79	100	89,4
Urgut	97,5	100	97,9
Qo'shrabot	100	100	99,2

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Bulung'ur va Nurobod tumanida (100,0 %), Samarqand tumanida (99,5%), tashkil etadi.

Qurilishda Urgut, Jomboy, Pasdarg'om, Nurobod (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'shrabot (99,2%), Bulung'ur (98,9%) Kattaqo'rg'on (98,8%) Ishtixon (98,7%) va Narpay (98,2%) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2626,0 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining (52,4%) yoki 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 % ni tashkil qildi;

1550,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 62,8 %) o'zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 149,8 % ni tashkil qildi;

1535,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,8 % ) bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 117,6 % ni tashkil qildi;

1355,7 mlrd.so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 75,0 %) 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,8 % yoki 5016,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,1 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

–100,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 76,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 9 mln. AQSh dollariga yoki 9,9 % ga ko'p;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 8,7 % ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 13,8 %) ko'payishi ta'minlandi;

– yo'lovchi aylanmasining esa 10,4 % ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 77,0 %) ko'payishi ta'minlandi;

## Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan foizda)




## 2018 yil yanvar-iyunda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur`ati



Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahar (719,8 mlrd.so`m), samarqand tumani (310,7 mlrd.so`m) va Bulungur tumani (209,9 mlrd.so`m) hissasiga to`g`ri keladi. Qo`shrabot tumanida (3,2 mlrd.so`m) va Nurobod tumanida (2,9 mlrd.so`m) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo`lib qolmoqda.




### 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahar (1272,6 mlrd.so'm), Pastargom (362,9 mlrd.so'm), Bulungur (255,6 mlrd.so'm), Samarqand (269,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

## 2018 yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Xizmatlar hajmining asosiy qismi Samarqand shahrida (1127,2 mlrd.so'm), Urgut (314,9 mlrd.so'm) va Samarqand (239,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil II chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 59 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, iqtisodiy vaziyatni - qulay 22,2 % ni, qoniqarli 66,7 % deb hisoblashini, mos ravishda qurilish sohasida respondentlarning savdo sohasida -15,4 % va 84,6 %, xizmatlar sohasida - 50,0 % va 50,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 22,2% va 77,8 %, sanoatda – 21,4 % va 71,4 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda - 7,1 %, qurilishda - 11,1 ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II–chorak uchun, (foizda)



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 71,4 % sanoat korxonalari, 49 % – savdo, 39 % – xizmatlar, 33,3 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 55,6 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

### Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, (foizda)



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.